

JAHON TARIXI


D.J. Urutov, A.A. Hukuziyev,
B.H. Xaymazarov, Q.A. Matkoilqov, S.I. Gabrielyan,
A.G. Xolliyev, O.A. Maximudov, R.N. Tursumov,
A.A. Rozikov, R.X. Djiyrayev, O.A. Radjabov

JAHON TARIXI

I TOM II QISM

QADIMGI YUNONISTON VA RIM TARIXI

ISBN978-9943-5024-1-5



9 789943 502415

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

"JAHON TARIXI" KAFEDRASI

D.J. Uraikov, A.A. Biykuziyev, B.B. Xaynazarov,
Q.A. Matxoliqov, S.I. Gabrielyan, A.G. Xolliyev, O.A. Maxmudov,
R.N. Tursunov, A.A. Rozakov, R.X. Djurayev, O.A. Radjabov

JAHON TARIXI

I TOM II QISM

QADIMGI YUNONISTON VA RIM TARIXI

Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik

Toshkent
«METODIST NASHRIYOTI»

2023

UDK:930.1
BBK: 63.3.0
J 18

D.J. Urakov

Jahon tarixi / A.A. Biykuziyev, B.B. Xaynazarov, Q.A. Matxoliqov, S.I. Gabrielyan, A.G. Xolliyev, O.A. Maxmudov, R.N. Turunov, A.A. Rozakov, R.X. Djurayev, O.A. Radjabov / Darslik. - Toshkent: "Metodist nashriyoti", 2022. 368 bet.

Oliy o'quv yurtlari tarix fakultetlari talabalari uchun mo'ljallangan ushbu "Jahon tarixi" darsligi jahon tarixining Qadimgi Yunonistonda ilk sivilizatsiya o'choqlarining vujudga kelishi davridan boshlab, G'arbiy Rim imperiyasining qilashigacha bo'lgan davrlarni o'z ichiga oladi. Mazkur darslik jahon tarixshunosligida so'nggi-yillarda olib borilgan tadqiqotlarning umume'trof etilgan natijalari bilan boyitilganligi, fan bo'yicha innovatsiyalarni o'quv jarayoniga joriy etilganligi bilan avvalgi o'quv adabiyotlaridan farq qiladi.

Ushbu darslik bakalavr talabalarga mo'ljallangan bo'lishiga qaramasdan, undan magistrlar, yosh tadqiqotchilar, tarixchi-olimlar ham keng foydalanishlari mumkin.

Mas'ul muharrir:

A.Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor, akademik

Tag'rizchilar:

O.P.Kobzeva

Tarix fanlari doktori, professor,

S.Tillaboyev

tarix fanlari nomzodi, dotsent

Darslik Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 9-sentabrdagi 302-sonli buyrug'iga asosan nashrga tavsiya etilgan (Ro'yxatga olish raqami 302-0393).

ISBN 978-9943-5824-1-5

© D.J. Urakov va boshq., 2023.
© "Metodist nashriyoti", 2023.

SO'Z BOSHI

Mustaqillik-yillarida Oliy ta'lim tizimida tub islohotlar amalga oshirildi. Jahon andozalariga mos ravishda Davlat Ta'lim Standartlari va Malaka talablari ishlab chiqildi.

Shu jihatdan Oliy ta'limda ilmiy adabiyotlarni yangi avlodini yaratish hozirga qadar dolzarb sanalib, bu borada Vatanimiz olimlari ham qator ilmiy tadqiqotlarni olib borayotganligi tahsinga sazovordir.

Shunga qaramay, "Jahon tarixi" fanidan jahon tarixshunosligida erishilgan yutuqlarni ilmiy muomalaga kiritish borasida qator vazifalarni amalga oshirish talab etilmogda.

Mazkur darslik O'zbekiston Milliy universiteti "Jahon tarixi" kafedراسi jamoasi tomonidan tayyorlangan bo'lib, unda jahon tarixi fani bo'yicha so'nggi vaqtda erishilgan yutuqlar va ilmiy bilimlardan keng foydalanildi.

Xususan, "Anglo-sakson maktabi", fransuz "Annallar maktabi" va "Berlin akademiyasi" ilmiy maktablari tomonidan tayyorlangan ilmiy materiallar tanqidiy tahlil etildi.

Mualliflar jamoasi darslik yuzasidan berilgan fikr-mulohazalar uchun oldindan minnatdorchilik bildiradi.

QADIMGI YUNONISTON

1-MAVZU. QADIMGI YUNONISTON TARIXIGA KIRISH

Reja:

1. Qadimgi Yunonistonning geografik o'ri va aholisi.
2. Qadimgi Yunoniston tarixini davrlashtirish.
3. Qadimgi Yunoniston tarixiga oid manbalar.

Qadimgi Yunonistonning geografik o'ri va aholisi.

Qadimgi Yunoniston jahon sivilizatsiyalar tarixida o'ziga xos o'rin egallaydi. Aynan shu yerda, O'tayer dengizining sharqiy sohilida, qadimgi Sharq bilan doimiy aloqalar natijasida Yevropa sivilizatsiyasi vujudga keladi.

"Antik" atamasi (lot. antiquus - qadimgi) shunchaki uzoq o'tmishni anglatmay, yunon-rim tarixida o'ziga xos o'rin tutadi. Yunon va rimliklar O'tayer dengizi irqiga hamda hind-yevropa tillari oilasiga mansub bo'lib, tarixi jihatidan ham bir-biriga yaqin xalqlar hisoblangan. Ular o'zaro o'xshash bo'lgan jamoat institutlari yaratgan, turmush tarzi hamda madaniy hayoti yaqin bo'lgan. Antik sivilizatsiya Qadimgi Yunonistonda paydo bo'lib, uning ilk rivojlanish davri mazkur hududga to'g'ri keladi. Keyinchalik bu jarayon Qadimgi Rimda o'zining yuqori cho'qqisiga yetadi. Rim imperiyasining qulashi bilan antik sivilizatsiya ham barham topadi. Qadimgi dunyoning asosiy fenomeni sifatida yunonlar barpo etgan va o'zida siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy madaniyatni mujassam qilgan *shahar fuqarolik jamiyati* - "*polis*"ning mavjud bo'lishi va unda yashagan "*fuqaro*" tan olinadi. Shu tariqa ushbu jamiyat polislar sivilizatsiyasi sifatida ham qadimgi dunyo tarixida muhim o'rin tutgan.

Qadimgi yunon tarixining geografik joylashuvi doimiy bo'lmagan. U tarixiy rivojlanishga ko'ra, o'zgarib va kengayib turgan. Qadimgi yunon sivilizatsiyasining asosiy hududi Egey havzasi, ya'ni, Egey dengizining Bolqon, Frakiya va Osiyo sohillari va ko'p sonli orollar sanalgan. Mil. avv. VIII-VI asrlarga kelib, buyuk yunon koloniashtirishidan so'ng yunonlar Janubiy Italiya va

Shahar hududlari, shuningdek, Qora dengiz sohillarini o'zlashtirganlar. Natijada Buyuk Yunoniston tushunchasi vujudga keladi. Mil. avv. IV asrning oxirida Makedoniyalik Aleksandrning qo'llab-quvvatlashi va Ahamoniyar davlati egallanganidan so'ng Yaqin va O'rta Sharqda ellin davlatlari tashkil topdi va bu hududlar qadimgi yunon dunyosining bir qismiga aylandi. Ellinizm davrida yunon dunyosi g'arbda Stsilyadan sharqda Hindistonigacha, shimolda Shimoliy Qora dengiz sohillaridan janubda Nilning birinchi irmoqlarigacha bo'lgan ulkan hududlarni qamrab oldi. Biroq butun qadimgi yunon tarixi davromida uning markaziy qismi Egey havzasi hisoblangan. Chunki bu yerda yunon davlatchiligi va madaniyati paydo bo'ldi va gullab-yashnadi.

Yunonlar o'zlari yashagan hududni Ellada deb nomlashgan va mazkur joy quyidagi uch qismdan: 1) Bolqon Yunonistoni (Bolqon yarim orolining katta qismi, 2) Kichik Osiyoning g'arbiy sohillari, 3) Egey dengizining ko'plab orollaridan iborat bo'lgan. Bolqon Yunonistoni uch tomondan dengiz bilan o'ralgan bo'lib, tabiiy jihatdan Shimoliy, O'rta va Janubiy Yunonistonga bo'linar edi.

Shimoliy Yunonistoni Makedoniyadan mintaqadagi eng baland hisoblangan Olimp tog'i ajratib turgan. Ushbu tog' doimo qor bilan qoplangan bo'lib, yunonlar e'tiqodiga ko'ra xudolar maskani sifatida shuhrat qozongan. Pind tog' tizmasi shimolni ikki hududga: Epir va Fessaliyaga ajratib turgan. G'arbda Epir tog' tizmalari mavjud bo'lib, bu yerdan Axela daryosi boshlanadi va unga yaqin Dodonada qadimgi Zevs ibodatxonasi joylashganligi ta'kidlanadi. Pind tog'laridan sharqda Fessaliyada, Yunonistondagi yagona yirik vodiya-yilqichilik bilan shug'ullanishga qulay sharoit bor edi.

O'rta Yunonistoni shimoldan tog' tizmalari ajratib turgan va u yerda Fermopli darasi joylashgan. Mintaqaning g'arbiy hududida Akarnaniya va Etoilya viloyatlari, sharqda esa Korinf va Efvbeya ko'rfazi oralig'ida Lokrida viloyati mavjud bo'lib, uning markazi Dorida shahrida vaqtinchalik doriyalar qo'nim topgan. Ularga qo'shni sifatida afsonaviy Parnas tog'lari bilan mashhur bo'lgan Fokida viloyati bor edi. Sharqdagi Beotiya viloyati eng unumdor yerlar va ulkan suv manbalariga ega hudud hisoblangan.

GLOSSARIY

Attika - Yunonistonning qadimgi viloyati, O'rta Yunonistonda joylashgan.

Antik - lotincha "qadimgi".

Antik tarix - Qadimgi Yunoniston va Qadimgi Rim tarixi.

Amfora - suyuq mahsulotlarni tashish va saqlash uchun mo'ljallangan bo'g'zi ingichka va qo'shaloq dastali katta ko'za.

Oykumena - Yer yuzining odamlar yashaydigan qismi, chegarasi.

Polis - yunoncha "shahar".

Traktat - biror-bir soha boshqaruviga bag'ishlangan asar.

Ellada - Qadimgi Yunoniston.

Ellinlar - qadimgi yunonlar; dastlab Yunonistonning barcha aholisi shunday atalgan.

Olimpiya - Qadimgi Yunonistondagi eng baland tog', balandligi 2811 metr.

2. MAVZU. KRIT-MIKEN¹ SIVILIZATSIVASI

Reja:

1. Krit sivilizatsiyasining paydo bo'lishi uni davrlashtirish.
2. Krit davrida Qadimgi Yunoniston jamiyatining ijtimoiy-siyosiy tizimi.
3. Minoy jamiyatida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar.
4. Materik Yunonistondagi Axey podsholigi. Miken.
5. Davlat tuzilishi va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi.
6. Axey jamiyati madaniyati.
7. Bolqonda Bronza davri sivilizatsiyasining inqirozi.

Krit sivilizatsiyasining paydo bo'lishi uni davrlashtirish.
Qadimgi Yunonistondagi dastlabki sivilizatsiya bo'lib, jahon tarixida o'ziga xos o'rin tutadi. So'nggi-yillarda olib borilgan arxeologik qazilmalar va tadqiqotlarga taynilgan holda xorij tarixshunosligida Egey dengizi hududidagi bronza davri yoki Krit madaniyati xronologik jihatdan quyidagicha bo'linadi:

1. Mil. avv. 3000-1900-y. - Materik Yunonistonda ilk bronza asri.
2. Mil. avv. 1900-1600-y. - Materik Yunonistonda o'rta Bronza asri.
3. Mil. avv. 1600-1200-y. - so'nggi bronza asri.

Ilk Yevropa sivilizatsiyasining yorqin gullab-yashnagan markazi Krit bo'lib, uning qulay geografik joylashuvi jamiyatning yuqori darajada rivojlanishi va dengizga hukmronlik qilishda o'ziga xos tarixiy yo'l ni belgilab berdi. Krit O'rta Yer dengizidan Egey dengizini ajratib turishi, atrofdagi orollar sharqdagi qadimgi sivilizatsiya bilan Yevropa xalqlarini o'zaro yaqinlashuvida "ko'prikl" vazifasini bajaragan.

Kritdagi bronza davri moddiy madaniyati tahliliga ko'ra Minoy madaniyati materikda - Ellada, orollarda esa - Kiklada deb

¹ Krit-miken sivilizatsiyasi (ba'zi adabiyotlarda Egey sivilizatsiyasi deb ham ataladi) bu Egey dengizining eng katta oroli hisoblangan Krit va Bolqon yarim oroli (materik Yunoniston)dagi davlatchilikni shakllanishi va rivojlanishi davrini o'z ichiga oladi. Bu qadimgi Yevropa sivilizatsiyasining beshigidir.

3-MAVZU. BUYUK YUNON KOLONIZATSIVASI

Reja:

1. Yunon polislarining vujudga kelishi.
2. Demos va aslzodalalar o'rtasida kurash.
3. Buyuk yunon kolonizatsiya va uning sabablari.
4. Peloponnes davlatlarining tashkil topishi.
5. Sparta davlati.

Qadimgi Yunoniston tarixida mil. avv. IX-VIII asrlarda chuqur o'zgarishlar sodir bo'ldi. Mayda, bir-biridan ayro bo'lgan urug' va qishloq jamoalari yangi ijtimoiy-siyosiy institutlarga aylana boshlaydi. Bunda turli xil ijtimoiy guruhlarning o'rtasida qonli to'qnashuvlar olib kelgan o'tkir qarana-qarshiliklar paydo bo'ldi, davlatchilik organlari tizimi shakllanadi, yuksak madaniyat yaratildi. Bu yangi ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar polis nomini olib, qadimgi yunon jamiyati, davlatchiligi va madaniyatining asosiy yacheykasiga aylandi.

Tarixiy adabiyotlarda polis eng ko'p "shahar-davlat" deb ta'riflanadi. Ushbu izohni bir muhim tomonini hisobga olibgina to'g'ri deb hisoblash mumkin: polis bilan bog'liq holda "shahar" tushunchasi ham, "davlat" tushunchasi ham faqat "qadimgi" ma'noda talqin qilinishi kerak. Qadimgi yunon tilida "polis" so'zi, albatta, "binolar, ko'chalar, mudofaa inshootlari va boshqalar" va "erkin to'laqonli fuqarolar jamiyatiga ega", "shahar" degan ma'noni anglatadi. Qadimgi mualliflar "polis" so'zida, avvalo, shahar fuqarolik jamoasini nazarda tutgan bo'lsa, "polis" so'zi davlatni ma'lum bir suveren hokimiyat nazorati ostidagi muayyan hududdagi fuqarolik jamiyatini anglatadi.

Shunday qilib, "polis" tushunchasini "shahar" tushunchasi yoki "davlat" tushunchasi bilan so'zsiz tenglashtirib bo'lmaydi. Chunki ikki yoki undan ortiq shahar markaziga ega bo'lgan (garchi ulardan biri poytaxt rolini o'ynab tursa ham) polislar ham mavjud bo'lgan. Shuningdek, shahar markaziga umumiy ega bo'lmagan (lekin kamdan-kam) polislar ham bo'lgan. Masalan, Sparta polisi yoki Ponopousning hech kim shahar deb atamaydigan polisi edi.

Shunga qaramay, polisni davlat sifatida tashkil etadigan shahar fuqarolik jamiyati sifatida ta'riflash "shahar-davlat" atamasiga eng ma'qul hisoblanadi.

Qadimgi Yunonistonning rivojlanishini asosan belgilab bergan o'la muhim jarayon arxaik taraqqiyot mavjud bo'lgunga qadar urbanizatsiya, ya'ni uning o'ziga xos xususiyatlaridan biri aynan shaharlashish xarakteri bo'lgan. Buni ma'lum darajada yunonlarda shakllangan kichik shahar davlatlari "polis"lar sifatida mavjud bo'lganligi asosiy xususiyatlaridan biriga aylandi. Agar arxaik davr boshida yunon olamida shahar hayotining markazlari deyarli mavjud bo'lmagan bo'lsa, keyinchalik Yunoniston haqiqatan ham "shaharlar mamlakati" ga aylandi va ularning aksariyati (Afina, Korinf, Fiva, Argos, Milet, Efes) va boshqalar) eng yirik iqtisodiy, siyosiy, madaniy markazlarga aylandi. Shaharlar turli yo'llar bilan shakllandi. Uning eng keng tarqalganlaridan biri bu sinoykizm (so'zma-so'z "turar-joy") deb nomlangan bo'lib, bu – bir viloyat hududida bir-biriga yaqin joylashgan bir nechta qishloq tipidagi kichik aholi punktlarining bir siyosiy birlikka qo'shilishidir. Ushbu jarayon bir shaharda bir nechta qishloq aholisini ko'chirishi bilan ham amalga oshirilishi mumkin edi.

Klassik davrda ham Afina fuqarolarining yarmidan ko'pi dehqonchilik bilan shug'ullanish mumkin bo'lgan yer maydonlarida yashagan. Afinaning o'zida faqat jamoaviy hukumat organlari bo'lgan. Arxaik davrdagi Yunonistonda shahar, atrofdagi hudud uchun ma'muriy markaz, aniqrog'i ma'muriy-diniy markaz rolini o'ynagan, chunki qadimgi davrlarda din davlat hayoti bilan chambarchas bog'liq edi. Shu bilan birga shahar ayni paytda eng muhim iqtisodiy markaz, hunarmandchilik ishlab chiqarish va savdo markazi bo'lgan. Shunday qilib, qadimgi yunon shaharlari vazifalarini sanab o'tish o'rini. Bu deyarli har bir shaharda ikkita markaz mavjudligida ifodalangan. Ulardan biri gal'a - akropol (akrosdan - yuqori + polis - shahar) bo'lgan. Odarda u tepalikda yoki qoyada joylashgan va mudofaa inshootlari majmuasiga ega bo'lgan. Akropol shahar va butun davlatning yuragi edi. Unda asosiy ibodatxonalar joylashgan, asosiy diniy odat-an'analarga yo'lga qo'yilgan. Akropolda dastlab siyosatni boshqarish organlari binolari bo'lgan. Bundan tashqari, dushmanlar hujum qilgan

4-MAVZU MAVZU: ATTIKA XO'JALIGI, IJTIMOY-SIYOSIY HAYOTI

Reja:

1. Attika jamiyati.
2. Drakon va Solon islohotlari.
3. Pisistrat tiraniasi.
4. Klisfen qonunchiligi. Polis demokratiyasini tashkil topishi.

Attika jamiyati. Attika uchburchakning shaklida bo'lib, O'rta Yunonistonning janubiy-sharqiy qismida joylashgan viloyat. Sharqdan va janubdan uning yertlari Egey dengizining suvlari bilan yuvilgan. Attikaning maydoni 2250 km kv bo'lib, maydoni bo'yicha Spartadan keyingi o'rinda turgan. Barcha tomonlari dengiz va tog'lar bilan o'ralgan Attika dehqonchilik uchun noqulay bo'lib, unumdor yer kam bo'lgan. Tuproq g'alla ekinlarini yetishtirish uchun mos bo'lmagan, shuning uchun afnaliklar doimo non yetishmovchiligini sezgan va donni chetdan olib kirishga majbur bo'lganlar. Shu bilan birga, zaytun daraxtlarini yetishtirish uchun sharoit juda qulay edi. Zaytun Afnaning asosiy xazinalaridan biri bo'lgan. Zaytun daraxtining Afna ma'budasi Afna homiyining mugaddas ramzi sifatida hurmat qilinishi bejiz emas.

Yunoniston bo'yicha Attika minerallarga boy edi. Mintaqaning janubida, Lavriyada kumushning yirik konlari bo'lgan. Ushbu konlar jadal rivojlana boshlagach, klassik davrda Afnaning iqtisodiy farovonligining asosiy omillaridan biriga aylandi. Kumush konlari, marmarning mo'l-ko'lligi savdo-hunarmandchilikning ilk taraqqiyotiga yordam berdi.

Yunonistonning markaziy viloyatlaridan biri bo'lgan Attika atrofi suv bilan o'ralgan bo'lganligi dengizchilikning rivojlanishiga sabab bo'ldi. Dastlab Attika aholisi kichik qishloqlarda yashagan. Keyinchalik esa ular qoyatosh bag'rida joylashgan Afna akropoli markazi bo'lgan shahar atrofida birlashdilar. Attikaning qadimgi aholisi bo'lgan ioniyalar va pelaslarga doriyalarning ko'chishi ta'sir qilmadi. Attika doriyalar hujumini qaytardi. Attikada doriyalar

Peloponnesdan haydab yuborgan axeylarning bir qismi panoh topdi. Attikada yunon tilining ioniy shevasida so'zlashadigan qabilalar guruhini to'rt urug' yoki qabila (fila)ga bo'lingan edi. Har bir fila bir necha o'nlab urug'lardan iborat bo'lgan uch fratriyaga bo'lingan. Gomer davrida Attika aholisini urug' zodagonlaridan chiqqan yo'lboshchi basileylar boshqargan. Basileylar o'liy hukmdor, sudya, kohn va harbiy boshliq vazifasini bajarganlar. Boshqa yunon polislarida bo'lganidek, basileylar huzurida Afnada oqsoqollar kengashi - areopag bor edi. Afsonalarga ko'ra, Afna aholisini birlashtirgan afsonaviy Tesey aholini uch guruhga bo'ladi: yer egalari - yevpatridlar, dehqonlar - geomorlar va hunarmandlar - demurqlar. Attika viloyati 12 ta alohida hudud - qabila okruglariga bo'lingan. Ularning markazlari Afna, Torika, Maraton, Afdna bo'lgan. Mil. av. VIII asr davomida xo'jalik va xususiy mulkchilikning rivojlanishi natijasida yevpatridlar basileylar-ning huquqini asta-sekin cheklay boshladilar. Ular o'zlarining ichidan arxontlar (oqsoqollar)ni saylay boshlaydilar. Basileylarning boshqaruv vakolatlari harbiy arxont (boshliq, sudya)ga o'ta boshladi. Natijada basileylarga faqat kohnlik vazifasi qoldi va u saylana boshlandi. Shunday qilib, Afnada hokimiyatni yevpatridlar orasidan har-yili saylanadigan 9 arxont boshqara boshladi. Ularning o'rtasida ijroiya, harbiy va sud hokimiyati taqsimlangan edi. yil davomida arxont vazifasini bajarган yevpatridlar o'z o'rinlarini yangi saylanganlarga bo'shatib berib, o'zlari areopagning umrbod a'zolari bo'lib qolar edilar. Areopag mil. av. VIII-VII asrlarda eng obro'li hokimiyat organi bo'lgan. Yevpatridlar kolonizatsiya va dengiz savdosida faol qatnashdilar.

Mil. av. VIII asrdan qishloq jamoalarida yer oilalarga bo'lib berildi. Yer xususiy mulkka aylanib, asosan mayda dehqon xo'jaligi paydo bo'ldi. Gallachilik, uzumchilik, zaytun daraxtlarini ekish dehqon xo'jaligining asosiy mashg'uloti bo'ldi. Asta-sekin ishbiarmon dehqonlar, urug' oqsoqollari mayda dehqonlarning yerlarini turli yo'llar bilan bosib ola boshladilar. Qarzga botgan kambag'al dehqonlar yerlaridan ajralib, qarzlari uchun qullikka tushib qoldilar. Yeri bo'lmagan yoki yeridan ajralgan bir qism dehqonlar hunarmandchilik bilan shug'ullandilar. Kulolchilik

5-MAVZU: YUNON-FORS URUSHLARI

Reja:

1. Yunon-fors urushlarining kelib chiqish sabablari va bosqichlari.
2. Milet va Kichik Osiyodagi yunon shaharlarining qo'zg'oloni.
3. Forslarning Bolqon Yunonistoniga birinchi hujumi (mil. avv. 492-490-y.).
4. Kserksning harbiy yurishlari.
5. Yunon-fors urushlarining yakuni.

Yunon-Fors urushlarining kelib chiqish sabablari. Yunon polislarning ijtimoiy, siyosiy jihatdan tashkili topishi miloddan avvalgi VI asrga kelib tugallandi. Natijada Bolqon Yunonistonidagi ko'plab polislarda ichki holat me'yoriylashdi, xo'jalik hayoti rivojlandi, aholi o'rta qatlamining siyosiy ahvoli o'zgardi. Xullas, madaniyatni yuksaltirish uchun sharoit yaratildi.

Miloddan avvalgi VI asr oxirida yunon polislari uchun xavfli dushman paydo bo'ldi. Bu ham bo'lsa, dastlab Fors viloyatida tashkili topgan hamda keyinchalik ulkan imperiyaga aylangan Ahamoniylar podshohligi edi. Kambiz vafotidan so'ng taxtga o'tirgan Doro I (mil. avv. 522-486-y.) ning iqtisodiy va harbiy islohotlaridan so'ng forslar imperiyasi yanada ravnaq topdi. Mil. avv. VI asr oxiriga kelib podshohlik hududi jihatidan ham ulkan saltanatga aylandi.

Ahamoniylar Kichik Osiyo shaharlari va Egey dengizining sharqiy qirg'oqlarini egallab olganlaridan so'ng, ular Bolqon Yunonistonidagi polislarni bosib olishning turli xil rejalarini tuza boshladilar. Ahamoniylarning harbiy-iqtisodiy potentsialining ortib borishi, cheklanmagan moliyaviy imkoniyat, ulkan armiyani mavjudligi hamda yunon polislarning bir-biri bilan dushmanlik kayfiyatida bo'lganligi kabi sabablar urushni boshlash uchun yetarli asos bo'lib xizmat qilgan.

O'sha vaqtda yunon shaharlari savdo-sotiq markazi, ulkan madaniyat o'chog'i sifatida mashhur bo'lgan. Bu yerlarni

egallanishi forslar g'aznasini ulkan boylik bilan to'ldirgan bo'lar edi.

Bolqon Yunonistonini egallash Ahamoniylar ulkan strategik ahamiyat ham kasb etgan. Forslar Sharqiy O'rta yer dengizini buyuk podshohlklarini ham qo'l ostiga olmoqchi bo'lishgan. Yunon polislari uchun forslarni mintaqada paydo bo'lishi o'lim xavfidan tuyulgan.

Yunon-fors urushlari miloddan avvalgi 500-449-yillar oralig'ida bo'lib o'tgan. Bu urush uzoq davom etgan dunyodagi urushlardan biridir. Jahon tarixshunosligining so'nggi yutuqlariga asoslanib, mazkur urushni 5 ta bosqichga bo'lish maqsadga muvofiqdir:

- 1) Mil. avv. 500-494-yillar – Milet va Kichik Osiyo yunon shaharlarining forslarga qarshi qo'zg'oloni;
- 2) Mil. avv. 492-490-yillar – fors qo'shinlarining Bolqon Yunonistoniga birinchi hujumi;
- 3) Mil. avv. 480-479-yillar – Yunonistonga Kserksning harbiy yurishi – yunon-fors urushlarining kulminatsion nuqtasi;
- 4) Mil. avv. 478-459-yillar – urush harakatlari xarakterining o'zgarishi, ustunlikni yunonlar qo'lga o'tishi, Egey dengizi va Kichik Osiyodagi yunon shaharlarining forslar zulmidan ozod bo'lishi.
- 5) Mil. avv. 459-449-yillar Afnaning harbiy ekspeditsiyasi. Misr bilan ittifoqi va yunon-fors urushlarining tugashi.

Yunon-fors urushlari voqealarini aks ettiruvchi asosiy manba Gerodotning "Tarix" asari hisoblanadi. Bundan tashqari ayrim xususiyatlarini hikoya qiladilar. Jumladan, Fuktidid Gerodot hikoyalardan foydalangan, lekin boshqa manbalarga asoslanib uning ba'zi talqinlarini to'g'rilagan. Shuningdek, qadimgi Yunon dramaturgi Esxli (u ikkala tarixchidan katta bo'lib) o'zi mazkur urushlarda qatnashgan. Esxli "Forlar" tragediyasida bevosita ishtirokchi sifatida Salamin oroli yonida yunonlarning forslar bilan qilgan dengiz jangini yorqin obrazlarda tasvirlagan, lekin unda urg'u urushning borishiga emas, balki yunonlarning qahramonligiga qaratilgan. Bu shaxslar nazarida fors urushi – sivilizatsiya tarixidagi markaziy hodisadir. Forslar nuqtai

afinaliklarning mag'lubiyatga uchrashi, Sharqiy O'rtayer dengizda vaziyatni Ahamoniylar foydasiga o'zgartiradi. Afnada qaytadan strateg lavozimiga tayinlangan Kimon misrlik va kiprliklar ko'magida mil. avv. 450-449-yillarda forslarga qaqshatqich zarbalar beradi. Keyingi harbiy harakatlar ikkala tomon uchun ham istiqbolsiz bo'lib bordi. Mil. avv. 449-yili Kimonning qarindoshi bo'lgan Kallyi Ahamoniylar davlati poytaxti Suzaga yuboriladi. Uning tashabbusi bilan tuzilgan kelishuv "Kallyi sulhi" nomi bilan tarixga kiradi. Mazkur sulhga asosan forslar Kichik Osiyodagi barcha yunon polislari mustaqilligini tan oladi. Hamda ularga qarshi harbiy harakatlar olib bormaslik va Egey dengizi hududlariga flot kirgizmaslik majburiyatini oldilar. O'z navbatida yunonlar Sharqiy O'rtayer dengizi va Misrdagi forslarga qarashi satrapliklar ichki ishlariga aralashmaslikni zimmasiga oldilar. Shunday qilib, uzoq davom etgan urush yunonlar g'alabasi bilan nihoyasiga yetadi.

Yunon-fors urushlaridan so'ng Afna. Yunon-fors urushlaridan so'ng Afna tez tiklandi. Pirey porti qayta qurilib, o'sha davrdagi O'rtayer dengizidagi eng yirik port hisoblangan Kartagen portiga tenglashdi. Dengiz ittifoqiga yetakchilik qilgan Afna yunon dunyosi dengiz savdosida ham birinchi o'rinni egalladi. Afna eksporti Shimoliy Qora dengiz, Sitsiliya, Apuliya, Etruriyani qamrab oladi. Egina, Korinf, Kerkira va boshqa shaharlar savdoda Afnani birinchiligini e'tirof etishga majbur bo'ldilar.

Mil. avv. V asr o'rtalariga kelib Afnada hunarmandchilik va dehqonchilikda foydalaniladigan qullar soni ko'payib ketdi. Afna olib borgan ko'plab urushlar natijasida Kichik Osiyo, Frakiya va Illiriyadan qullar olib kelib sotiladigan Xios orolidagi qul bozori iqtisodiyotning ishchi kuchiga bo'lgan doimiy ehtiyojini qondirdi.

6 MAVZU. MIL. AVV. V-IV ASRLARDA YUNONISTON. POLIS TIZIMINING INQIROZI

Reja:

1. Afnada quldorlik demokratiyasining rivoji.
2. Peloponnes urushlari (mil. avv. 431-404-y.).
3. Polis tizimining inqirozi.

Afnada quldorlik demokratiyasining rivoji. Yunon shahar davlatlarining raqobati va Afna demokratiyasining rivoji Yunonistonda fors bosqini bartaraf qilish jarayonida kuchli ehtiyojga asoslangan demokratiya shakllandi. Uchinchi bosqini oldini olishga qaratib, ko'plab yunon polislari urushda harbiy dengiz kuchlari hisobidan alohida o'rin egallagan Afna boshchiligidagi ittifoqqa a'zo bo'ldi. Bu ligadan kelgan daromadlar natijasida Afna polislarning mavqei yanada ortadi, jamiyatda boshqaruv ishlarida alohida o'rin egallagan erkaklar soni ko'paygan. Oddiy fuqarolar



nom, Parfenon ibodatxonasi. Afna

rivojlanib borayotgan shaharlar aholisining asosiy qismiga aylanib bordi, biroq ular boy va aslzodalarga siyosiy boshqaruvda an'anaviy monopoli boshqaruvni qo'llab-quvvatlashlariga halal berardilar.

Haqiqatda Afnaning iqtisodiy korxonalari Attikadagi qullar sonini oshirdi va erkak fuqarolari orasida tenglik o'sib borsada, ayollarning mavqei pasayib ketishiga qo'llab-quvvatlash berildi. Kserks mag'lubiyatidan keyingi o'n yillar mobaynida Afna shahri asosiy madaniy markazga aylandi. Barcha ayollar uchun xudo Dionis sharafiga qo'yiladigan tragediyalarni ko'rishga kelishardi. Afnaliklarning dengizni qo'riqlash uchun olingan pullarning bir qismi diniy marosimlarni nishonlash va Afna tepaligidagi Parfenon kabi ommaviy inshootlar qurish uchun ishlatilgan edi. Tragediyachilar Essil, Yevripid va Sofokllarning asarlari Afnada tug'ilgan, shuningdek, komik dramaturg

**7-MAVZU. ALEKSANDR MAKEDONSKIY IMPERIVASI VA
ELLINIZMNING SHARQQA YOYILISHI. ELLINISTIK BOSQICH VA
UNING XUSUSIYATLARI**

Reja:

1. Filipp II va Makedoniyaning yuksalishi.
2. Aleksandr Makedonskiy imperiyasi.
3. Ellinistik bosqich va uning xususiyatlari.

Filipp II va Makedoniyaning yuksalishi. Qadimgi yunonlar tarixining o'ziga xos jihatlaridan biri hududda uzoq vaqt davomida o'z mustaqilliklarini saqlab kelgan yunon polislarining mavjud bo'lganligidir. Ularning kichik hajmi va beqarorligi antik davrda ham hayratlanarli bo'lishiga qaramasdan forslar hujumidan omon qolganlar. Mil. avv. IV asrda xorijliklar bosqini xavfi ajablanarli holat emas edi, lekin bu xavf-xatar qudrati Fors imperiyasidan emas, balki o'sha vaqtgacha unchalik ahamiyatga ega bo'lmagan Makedon yoki Makedoniya nomlari bilan tanilgan podsholik tomonidan edi.

Makedoniyaning muvaffaqiyatlariga Afinadagi siyosiy bo'linishlar va iqtisodiy bosim hamda yunon polislarining parokandalikka uchrashi sabab bo'lgan edi. Bularning barchasi mil. avv. 359-yilda Makedoniya shohi bo'lgan noyob harbiy va diplomatik mahoratga ega Filipp II uchun imkoniyat yaratdi.

Filipp II mil. avv. 382-yilda tug'ilgan bo'lib, Aminta III va uning Illiriyalik xotini Evridikaning farzandi bo'lgan. Plutarxning yozishicha, Evridika bolalarini tarbiyalash uchun o'qishni o'rgangan, lekin Filippni o'qishi akasi Aleksandr II mag'lubiyati natijasida mil. avv. 369-367-yillarda Fivaga garov sifatida asirlikka jo'natish bahonasida to'xtab qoladi. Uning garov sifatida ushlab turlishi unchalik katta yo'qotish bo'lmadi. Filipp Fivada bo'lganida Lektra ustidan g'alaba unga zamonaviy yunon siyosati va harbiy taktikasi bo'yicha qimmatli ma'lumotlarni o'rganishiga turtki beradi.

Filipp mil. avv. 367-yilda Makedoniyaga qaytganida mamlakatda hamon tartibsizlik hukm surardi. So'nggi yetti yil mobaynida uchta podsho davlatni boshqargan edi. Siyosiy

beqarorlik Filippga kutilmagan imkoniyatni hosil qiladi va u Predkass o'limidan keyin hokimiyatni egallashga da'vo qilishga boshladi.

Filipp II mil. avv. 359-yili Makedoniya podshosi bo'ldi. U taxtga kelganida, Makedoniya har taraflama og'ir iqtisodiy, siyosiy inqiroz holatida edi.

Filipp II o'zidan oldingi hukmdorlarning siyosiy harakalaridan voz kechadi. Makedoniyani birlashtirib, davlatni mustahkamladi. O'zidan avvalgi podsholarning markaziy hokimiyatni mustahkamlash borasidagi yagona sistemasini mantiqan tugatgan. Shu tufayli Filipp II Makedoniyani Yunon dunyosidagi kuchli davlatlardan biriga aylantirish orqali Forslar bilan raqobatlasha oladigan davlat maqomiga olib chiqqan. Filipp II birinchi bo'lib Makedoniyaning xo'jalik ishlarini rivojlantirishga asosiy e'tiborni qaratgan. U iqtisodiy jihatdan tog'li hududlardan yangi yerlarni o'zlashtirib, qishloq aholisining bir qismini o'sha yerga ko'chirgan. Bu yangi shaharlar (masalan, Filipp shahri) strategik jihatdan qulay joyga qurilganligidan tashqari iqtisodiy-harbiy tomondan ham markaz bo'lgan. Filipp II bor harakatini konlarni topishga va u yerdan temir ishlab chiqarib, harbiy jihatdan armiyasini kuchaytirishga jalb etadi. Filipp II Pangeya konlarini bosib olib, u yerdagi ishlab chiqarishni kuchaytirish orqali yiliga 1000 talant oltin foyda ko'rgan. Bu unga o'zining oltin tangalarini ko'plab ishlab chiqarish imkonini bergan. Oltin va kumush tangalardan iborat katta zaxiraga ega bo'lishi Makedoniyaga Egey dengizi, Qora dengiz qirg'oqlari va Sharqiy O'rta yer dengizi hududlarida savdo alogalarini olib borish imkonini berdi. Ulkan flot qurilishi bilan dengizda u katta o'ljalarga ega bo'ldi. Filipp II bir necha yil Yunonistonda (Fivada) yashagani bois, yunon harbiy qismlari kamchiliklarini yaxshi bilgan. Filipp II ning islohotlardan biri yunon harbiylarining kuchi taraflarini o'z armiyasiga joriy qilganida edi. Asosiy harbiy tuzilishga kiritilgan o'zgarishlardan biri sifatida og'ir qurollangan piyoda qismlarni ta'kidlash lozim. Agar yunon qo'mondonlari o'zining harbiy qatorlarini bitta qismga birlashtirgan bo'lsa, Filipp II buni aksini qilgan va jangda ushbu harbiy taktika ustunlikni

8-MAVZU. QADIMGI YUNONISTON MADANIYATI

Reja:

1. Qadimgi Yunonlarning ma'naviy hayoti.
2. Qadimgi Yunoniston madaniyatida ilm-fanning roli.
3. Qadimgi Yunoniston dini.

Panafin bayrami. Afina jamiyatining ma'naviy hayoti Afina Pallada xudosi avlodi bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Unga bag'ishlangan Panafin tantanali bayrami (ya'ni Afinaning hamma bayramlari)da barcha Afina aholisi ishtirok etgan. Bu yerda diniy sohada mashhur bo'lgan kohn va ruhoniylar ham qatnashganlar. Afsonaga ko'ra, Pisistratar davrida an'angaga aylangan, Afina sharafiga bag'ishlangan tantanali bayramni nishonlash miloddan avvalgi V asrga to'g'ri keladi.

Panafin katta tantanali bayrami yozning o'trasida har to'rt yilda bir marta nishonlanadi (Kichik Panafin bayrami esa har yili o'tkaziladi). Bayram musiqiy chiqishlar va raqslar bilan boshlangan hamda kechasi mash'alalar yoqib, yuqori kayfiyatda nishonlashgan. Ertasi kuni Agenadan Akropolgacha bo'lgan afinaliklarning tantanali marosimi bo'lib o'tardi. Qavmning eng obro'li kishilari bayramni boshqarganlar.

Namoyish qatnashchilari Erexeon ibodatxonasidagi Afina haykali uchun yangi hashamati kiyim olib kelardilar (bu kiyimlar bir necha oy davomida afinalik eng odobli, oqila qizlar tomonidan tikiladi), shuningdek, buguni qurbonlik uchun so'yadilar. Diniy marosimning oxirida ot poyalari musobagasi o'tkaziladi. Vaqt o'tishi bilan Panafin o'yinlari shu zaylda nishonlanib kelindi. Perikl davrida bayramni she'r va musiqiy musobagalar bilan o'tkazishlari uchun maxsus Odeon nomi teatr binosi qurildi. Panafin o'yinlaridagi musobaga g'olblariga yozuvli, zaytun moyi bilan to'ldirilgan sopol idish ya'ni amfora berilgan. Juda ko'p amforalar topilganligiga qaraganda, mazkur musobagalarning mashhur bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

Arxalk davrning oxiriga kelib Dionis – uzumchilik va vinochilik xudosisiga sig'inish ham keng tarqaladi. Afina mashhur bo'lgan bayram kuzdan bahorgacha davom etadi. Bayram

qatnashchilari echkining terisini kiyib, yo'lodosh Dionisni satirik (kulgili taqlid) aks ettirishadi. Ular quvnoq xudosi haqida afsonaviy sahna ko'rinishlarini ijro etadilar va uni mashhur qiluvchi diframb (madhiya) kuylaydilar. Miloddan avvalgi VI asrda bu qo'shiqlardan fojiali sahna ko'rinishlari paydo bo'ldi (eчки qo'shig'i). Teatr demokratik Afina hayotining asosiy elementlaridan biriga aylandi. Shahar aholisi hayotining agonal xarakterining asosiy xususiyatlari, madaniyati aniq va ravshan tarzda qadimgi Yunon teatrlarida mujassamlashtirilgan.



10-rasm. Qadimgi yunon amforasi

Dinonis sharafiga bag'ishlangan so'nggi diniy marosim miloddan avvalgi 500-yillarda o'tkazilgan. Afinadan kelgan ko'pgina vakillar ushbu namoyishlardan zavqlanishardi. Ular Mart oyining oxirlari – Aprel oyining boshlarida bayramni nishonlaganlar. Bayramdan bir necha kun oldin Afinadagi Dionis haykalini ko'chirish marosimi o'tkazilib, u teatr yaqinidagi dargohga joylashtiriladi. Arxont-eponim bayramga boshchilik qilgan. Aholining mansabdor kishilari, ruhoniylar bayramni hashamati tarzda boshlaydilar. Ko'pgina bayram qatnashchilari yelkalarida vino bilan terili mo'yna, don mahsulotlari, mevali savatcha, gullar, diniy ramzlar, qurbonlik uchun bugalar ko'tarib yurish marosimlarida qatnashadilar (ular yuztadan ko'p bo'ladi). Dionis mehrobida olimpiya xudolari uchun hayvonlarni qurbonlikka atab so'yishadi. Diniy marosim va ovgatanishdan so'ng ishtirokchilar shahar ko'chalariida timpan (musiga asbobi) da quvnoq musiga chalib qo'shiq aytadilar. Keyingi ikki kun ichida Dionis sharafiga bag'ishlab, yosh yigitlar jo'r bo'lib diframb (diniy madhiya) kuylash musobagasi o'tkaziladi. Musobaga g'olbiga Afina ko'chasi Dionis dargohidan ko'chirib olingan uch oyoqli kursi sovg'a qilinadi. Shundan so'ng Akropolning janubiy yonbag'rida joylashgan Dionis teatrida 17 ming tomoshabinni qamrab olgan teatr namoyishlari boshlanadi.

sikloniklarni o'z otasini qahramon sifatida emas, xudo sifatida ulug'lashga majbur qildi.

Bundan tashqari, joylarda e'tiborli oilalar jamiyatta keng tarqalib ulgurgan marosimlarni qo'llariga ushlab qolishga harakat qildilar. Jumladan, Afinada Erextey, Buta kabi qahramonlar kult zodagon Butadlar xonadoni qo'lida bo'lgan.

Qadimgi yunon xudolari mahalliy va umumiy xudolar toifasiga bo'linadi. Mahalliy xudolarga o'zaro urushlarda yordam beradi, deb e'tiqod qilingan bo'lsa, umumiy xudolar tashqi dushmanga qarshi kurashlarda yordam beradi deb ishonilgan. Yunonistonda alohida shaharlarning o'z xudolari bo'lganligi bu mamlakatning siyosiy tarqoqligidan xabar beradi. Gomer davrida yunonlarning madaniy jamoasi umumiyunon xudolari hisoblanmish Olimpiya xudolariga ibodat qilishi bilan ajralib turar edi. Olimpiya ulug' xudolari ponteoning kelib chiqish masalasi juda murakkabdir. Ularning har biri o'ziga xos bo'lib, ba'zilarini Ellada davridan avvalgi xudolarning yunonlar tomonidan o'zlashtirib olingani sifatida tushunish mumkin.

QADIMGI RIM

9-MAVZU. QADIMGI RIM TARIXIGA KIRISH

Reja:

1. Rimning jahon tarixida tugan o'rni.
2. Italiyaning geografik o'rni va tabiiy sharoitlari.
3. Qadimgi Rim tarixini davrlashtirish.
4. Qadimgi tarixning o'rganilishi.
5. Aholisi va etnik xilma-xilligi.

So'nggi yillarda jahon tarixi fanini o'rganishga sivilizatsion yondashuv keng tarqalmoqda. Unda insoniyatning tarixiy taraqqiyoti ketma-ketligi ko'plab sivilizatsiyalar zanjiri sifatida qaraladi. Bu kurs jahon tarixidagi eng muhim sivilizatsiyalardan biri – qadimgi sivilizatsiya, ya'ni uning qadimgi Rim bilan bog'liq tarkibiy qisminga qaratilgan.

Qadimgi yunonlar va rimliklar yaratgan qadimgi sivilizatsiya insoniyat tarixida va, ayniqsa, Yevropa tarixida mutlaqo o'ziga xos o'rin tutadi. Bu birinchi Yevropa sivilizatsiyasi bo'lib, dunyodagi barcha keyingi tariximiz kuchli qadimgi poydevorga asoslangan. Antik davrning insoniyat tarixiy taraqqiyotiga qo'shgan hissassi nihoyatda kattadir. Shu kungacha ularning deyarli barcha sohalarda boy merosidan bahramand bo'lmogdamiz. Bizga ma'lumki, zamonaviy G'arbiy Yevropa davlatlarining deyarli ko'pchiligi Rim imperiyasining sobiq viloyatlaridan biridir. Qadimgi rimliklarning tili – lotin tili xalqaro mulqotning universal vositasi bo'lgan va yangi tillar: ingliz, fransuz, ispan va boshqa Yevropa tillarining lug'at boyligiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Qadimgi Rim huquq tizimi – "Rim huquqi" deyarli barcha zamonaviy huquqiy tizimlarning asosini tashkil etgan. Unda mulkiy munosabatlari, ashyoviy huquqlar, turli bitimlar, shartnomaga asoslangan va asoslanmagan majburiyatlar, meros huquqi va boshqa masalalarga oid qoidalar mukammal ishlab chiqilgan. Rim imperiyasining yuksalishi, uning boshqa davlatlarni bosib olishi bilan faqat rimliklarga tegishli bo'lgan bu qonun-qoidalar talabga javob bermay qo'ydi. Buning ustiga nafqat

MUNDARIJA

SO'Z BOSHLI.....	3
QADIMGI YUNONISTON.....	3
1-mavzu. Qadimgi Yunoniston tarixiga kirish.....	4
2-mavzu. Krit-Miken sivilizatsiyasi.....	17
3-mavzu. Buyuk yunon kolonizatsiyasi.....	44
4-mavzu. Atika xo'jaligi, ijtimoiy-siyosiy hayoti.....	64
5-mavzu. Yunon- fors urushlari.....	82
6-mavzu. Mil.av. V-IV asrlarda Yunoniston. Polis tizimining inqirozi.....	105
7-mavzu. Aleksandr Makedonskiy imperiyasi va Ellinizmi Sharqqa yoyilishi. Ellinistik bosqich va uning xususiyatlari.....	124
8-mavzu. Qadimgi Yunoniston madaniyati.....	174

QADIMGI RIM

9-mavzu. Qadimgi Rim tarixiga kirish.....	197
10-mavzu. Ilk Rim respublikasi.....	213
11-mavzu. Mil. avv. III-II asrlarda Rim respublikasi.....	253
12-mavzu. Rim respublikasi inqirozi va Ilk imperiya davri..	283
13-mavzu. Milodiy I-II asrda Rim imperiyasida ijtimoiy- iqtisodiy munosabatlar.....	298
14-mavzu. So'nggi Rim imperiyasi.....	330
15-mavzu. G'arbiy Rim imperiyasining qulashi.....	345
16-mavzu. Qadimgi Rimda ilm-fan.....	250
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	361

D.J. Utrakov, A.A. Birykuziyev, B.B. Xaynazarov,
Q.A. Matxoliqov, S.I. Gabrielyan, A.G. Xolliyev, O.A. Maxmudov,
R.N. Tursunov, A.A. Rozakov, R.X. Djurayev, O.A. Radjabov

JAHON TARIXI

I TOM II QISM

QADIMGI YUNONISTON VA RIM TARIXI

Darslik

TOSHKENT: "METODIST NASHRIYOTI" - 2023

Muharrir: Xolsaidov F. B.

Bosishga 18.03.2023. da ruxsat etildi. Bichimi 60x90.

"Cambria" garniturası. O'qset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i 23. Nashr bosma tabog'i 23.

Adadi 280 nusxa.

"Metodist nashriyoti" matbaa bo'limida chop etildi.

Manzil: Toshkent shahri, Farhod ko'chasi, 6-a uy.



+99893 552-11-21

Nashriyot rozilgisiz chop etish ta'qiqlanadi.